



INKLYUZIV TA'LIMGA O'QITUVCHILARNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK TAYYORGARLIGI MUHIM OMIL SIFATIDA

Urunova Dilafro`z Muzafarovna

BuxDPI o`qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada inklyuziv ta'limning ta'lim tizimidagi ahamiyati, inklyuziv ta'limni olib borishda pedagog xodimlarning kasbiy va shaxsiy sifatlarini yuksaltirish masalalari bayon qilingan.*

Tayanch so`zlar: *inklyuziv ta'lim, psixologik tayyorgarlik, pedagog, shaxsiy sifatlar*

Аннотация: *В статье рассмотрено значение инклюзивного образования в системе образования, вопросы повышения профессиональных и личностных качеств педагогов при проведении инклюзивного образования.*

Ключевые слова: *инклюзивное образование, психологическая подготовка, педагог, личностные качества*

Annotation: *The article describes the importance of inclusive education in the educational system, issues of improving the professional and personal qualities of pedagogues in conducting inclusive education.*

Key words: *inclusive education, psychological preparation, pedagogue, personal qualities*

Inklyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lim alohida ehtiyojli bola yaqin atrofda joylashgan har qanday maktabda ta'lim olishi, ta'lim dasturlarini o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordamga ega bo'lishi, darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlashi lozimdir. Inklyuziv termini inglizcha – uyg'unlashish, hamkorlikdagi ta'lim ma'nosini berib, butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va eng samarali ta'lim sifatida tan olingan. Inklyuziv ta'lim – barcha o'quvchilar uchun maxsus ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini inobatga olgan holda ta'lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta'minlashdir.

Inklyuziv ta'lim nafaqat me'yoriy mustahkamlashni va tashkiliy sa'y-harakatlarni, balki inklyuziv ta'lim bir butun tizimni o'z ichiga oladi. Inklyuziv ta'limda boshlang'ich ishlarni amalga oshirishda, avvalambor, o'qituvchilarning bu ta'lim tizimiga munosabatini kasbiy va axloqiy o'zgarishdan boshlashimiz lozim. Bunda o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash tajribasini tahlil qilish, kasbiy qiyinchiliklarni yengib o'tishida yordam berish, o'qituvchini chuqur psixologik tajribaga ega bo'lishi uchun maxsus kurslar tashkil etish lozim. Pedagoglar alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarga ta'lim beradi, bolalarga va ularning ota-onalariga korreksion-pedagogik yordam olishida va kasbga yo'naltirishida har tomonlama yordam beradi. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolani o'ziga o'xshagan



nogironligi bo'lgan bolalar emas sog'lom bolalar bilan birgalikda ta'lim olishiga zamin yaratadi.

Inklyuziv ta'limda o'qituvchi avvalambor o'ziga ishongan holda alohida ta'lim ehtiyoji mavjud bolalar bilan ishlash jarayonida quyidagilarga ahamiyat qaratishi lozim:

- keng ko'lamli iste'dod, qobiliyat va yutuqlarni qadrlash va o'quvchilarning o'zlarini qadr-qimmatini, insonligini his etishini ta'minlash;

- alohida ehtiyojli bolalar o'zlari erishgan muvaffaqiyatlarini va o'ziga bo'lgan ishonchini rag'batlantirishi, bunday turdagi bolalar qo'lidan ham buyuk ishlar chiqishiga ishontira olishi;

- bolalarga ta'lim berishda barcha pedagog xodimlar bilan birgalikda hamkorlikni amalga oshirish;

- farzandining ta'lim-tarbiyasini olib borishda ota-onalar bilan yaqin hamkorlikda ishlash;

- inklyuziv ta'limda o'qiydigan farzandi mavjud oilalarga tashrif buyurish va suhbatlashishni tashkil etish;

- ota-onalarning o'z huquqlarini himoya qilishlarini ta'minlash, qonunchilik va xizmatlar ko'rsatishga ta'sir ko'rsatadigan jamoat tashkilotlarining ishlariga jalb qilish.

Inklyuziv ta'lim jarayonida o'qituvchi butun dunyo hamjamiyati tomonidan qabul qilingan bola huquqlariga doir xalqaro va O'zbekistonda qabul qilingan qonunlar, qarorlarni bilishi va ularni mislsiz ravishda amalga oshirishi zarur.

- ta'lim-tarbiya jarayonini davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quv reja va dastur asosida maxsus korreksion tuzatish usullaridan foydalanilgan holda olib boradi;

- alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlarini bilishi va ta'lim jarayonini shunga mos ravishda olib bora olishi.

- alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalarning imkoniyatiga mos ravishda individual yondoshuvni amalga oshirish (dars davomida va darsdan tashqari);

- ta'lim jarayonida hamkorlikda faoliyat olib borishning samaradorlikka erishish va unda ota-onaning o'rnini ko'rsatib berish;

- ta'limda zamonaviy, innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish (kompyuter, monitor, tarqatma materiallar va hokazo);

- inklyuziv ta'lim bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribasini doimiy ravishda o'rganib borish, va ularning ish faoliyatida qo'llash;

- innovatsion bilim, malaka hamda ko'nikmalar bilan qurollanib yurishi (har qanday vaziyatda ham qiziquvchilarning savollariga javob beraoladigan bo'lishi);

- alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalarni sinf, maktab jamoasiga moslashishi uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlarni amalga oshirib borishi;

- sinf jamoasi orasida do'stona munosabat muhitini o'rnatish va nazorat qilib birish.

- doimiy ravishda o'z ustida ishlash va tajriba almashib borish;

- o'quvchilarning yutuqlarini baholash va yetkazish strategiyasini ishlab chiqishi lozim.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son q
2. BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasi
3. O'zbekiston Respublikasining 2020-2025-yillarda Xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasi